
TOSHLOQDA "MAHALLADA DUV-DUV GAP" TARG'IBOT TADBIRLARI BO'LIB O'TMOQDA

Bugun 3-sektor hududidagi "Qanjirg'a" MFYda "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" shiori ostidagi "Mahallada duv-duv gap" ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tadbiri bo'lib o'tdi.

Tadbirda so'z olganlar "Nuroni" jamg'armasi viloyat bo'limi raisi Z.Rahmonov, 3-sektor rahbari, tuman IIB boshlig'i Podpolkovnik A.Kattabekov, tuman hokimi o'rinbosari E.Madaminov, tuman hokimi maslahatchisi M.Qoraboyeva hamda Farg'ona politexnika instituti o'qituvchisi M.Yusupovlar yurtimiz taraqqiyoti yo'lida olib borilayotgan islohotlar, yoshlarimizga qaratilayotgan e'tibor, xotin-qizlarimizning jamiyatdagi o'rni va aholining turli qatlamlariga yaratilib berilayotgan imkoniyatlar hamda unga nisbatan shukronalik hissi haqida gapirib o'tdilar.

Keng jamoatchilik vakillari ishtirokida o'tkazilgan mazkur tadbirdan ko'zlangan maqsad Yangi O'zbekistonni bunyod etish yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar hamda erishilayotgan yutuqlarni xalqimizga yetkazish va aholini kayfiyatini ko'tarishdan iboratdir.

Tadbirda tuman madaniyat xodimlari hamda iste'dodli yoshlar tomonidan yangragan kuy-qo'shiqlari barchaga hush kayfiyat baxsh etdi. Tadbirda faol ishtirok etganlarga kitoblar jamlanmasi sovg'a qilindi.

2024-01-08 15:53:00